



ALISHER NAVOIYNING YOSHLARNI KOMILLIK SARI BOSHLAYDIGAN ASARI.

Nabiyeva Nodira Saidovna

*Surxondaryo viloyati, Denov tumani,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

Annotation: *this article provides scientific information about the contribution of the work "Mahbub ul-qulub" to the education of young people, as a source that leads to perfection.*

Keywords: *State, People, interest, humane, figure, Masnavi, work, story, perfection, upbringing.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Mahbub ul-qulub" asarining yoshlar tarbiyasiga bo'lgan hissasi, komillik tomon boshlaydigan manba ekanligi haqida ilmiy ma'lumotlar keltiriladi.*


Kalit so'zlar: *Davlat, xalq, manfaat, insonparvar, arbob, masnaviy, asar, hikoya, komillik, tarbiya.*

KIRISH. (Introduction)

Azal-azaldan davlatlar rivojlanishi, uning ravnaq topishi o'z xalqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Xalqining manfaatlarini ko'zlamay ish tutgan hukmdorlarning davlati hamisha tanazzulga yuz tutib kelgani tarixdan ayon. Qadimiy Turkiston diyorimizda ham xalq dardi ila yashash va insonparvarlik tuyg'usi mushtarakligida chin dildan el-yurtiga xizmat qilgan davlat arboblari yetishib chiqqan.

Xususan, o'rta asrlarda Xuroson va Hirot o'lkasida ana shunday arbob siymosida xalqparvar, insonparvar Alisher Navoiy maydonga chiqdi. O'z xalqi tomonidan "Amiri kabir", ya'ni ulug' vazir deya ta'rif berilgan bu inson davlat ishlarida katta mas'uliyat bilan xizmat qildi. Hazrat Alisher Navoiy asosiy faoliyati davomida o'zining xalqqa chin dildan xizmat qilish, mamlakatda tinchlikni va aholi osoyishtaligini ta'minlash, katta-katta obodonchilik ishlarini olib borish, xalq orasida ilm-fanning ravnaq topishiga benazir hissa qo'shishdek amallari bilan tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bu ishlarni amalga oshirishda u juda ko'p qiyinchilik va mushkulotlarga duch kelishiga qaramasdan,

Hiroti o'z davrida yuksak darajada taraqqiy etishiga erishdi. Xalq orasida kelib chiquvchi o'zaro urushlarni oldini oldi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, "Xalosiya" nomli xonaqoh, "Ixlosiya" madrasasi, "Shifoia" tabobatxonasi, Jome' masjidi, o'nlab qiroatxonalar va shunga o'xshash bino va inshootlar, rabotlar qurdirganiga guvoh bo'lamiz. Insonparvarlikning yuksak namunasi bo'lgan bu inson har yili minglab beva bechoralarga oziq-ovqat va kiyim-kechaklar ulashadi. Uning homiyliги ostida davlatda mashhur olim-u mutafakkirlar, shoirlar va xattotlar, quruvchi va naqqoshlar to'planadi.





Alisher Navoiy ilm-fan, madaniyat rivoji va hatto davlat taraqqiyoti yo'lida ham hamisha ana shu xalq bilan maslahatlashib turardi. Adabiyot xalqi tomonidan "zullisonayn" deya ta'rif berilgan bu insonning deyarli barcha asarlarida insonparvarlik, xalqqa sadoqat kabi olijanob tuyg'ular jo'sh uradi.

Haqiqiy inson xalq dardi, uning kelajagi haqida xuddi o'zining dardidek qayg'urishi, uni bartaraf qilish yo'llarini izlashi lozim. Bularni uning quyidagi hikmatidan ham bilishimiz mumkin:

Odami ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin ga'mi

Hayot yo'llarining so'ngi yillarida, ya'ni 1500-yili u o'zining "Mahbub ul-qulub" nomli asarini yozdi. Bu asarda ham komillik sari chorlovchi oid bir qancha hikmatlar joy oldi:

"Naf'ing agar xalqqa beshakdurur, bilki bu naf o'zungga ko'prakdurur..."

Ya'ni, agar xalqing uchun qiladigan yordaming, beradigan foydang chin dildan, beminnat bo'lsa, albatta shu ishingni qilgin. Chunki bu ishlar xalq bilan barobar sening o'zing uchun ham foydasi ziyodadir, degan ma'noni tushunishimiz mumkin. Alisher Navoiy xalqi uchun, davlat rivoji uchun o'zidan ham ortiq qayg'urdi, o'ziga loyiq ko'rganni xalqiga ham loyiq deb bildi:

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,

O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.

Alisher Navoiyga bugungi kunga kelib ham dunyoning eng mashhur namoyondalari ham tan berishmoqda. Bu siymoga atab bir qancha davlatlarda haykallar o'rnatilgani bejiz emasdir. Yurtimizda ham 1991-yil "Alisher Navoiy yili" deb nomlandi. Sharq pandnomachiligining noyob namunalaridan bo'lgan "Mahbub ul-qulub" asari muallifning jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to'g'ri yo'lga solish va shaxs ma'naviyatini tarbiyalashga oid qimmatli nasihatlaridan iborat. Mutaфakkir dunyoda turli nohaqliklar, yovuzliklar bisyorligiga ishora qilib, "Hayotning bunday achchiq, og'ir sinovlariga hali-hanuz duch kelmagan insonlar ko'p, ular umr yo'llarida qoqilmasliklari, yaxshi-yomonni farqlay olishlari uchun ushbu kitobni yozdim, ularni hushyor torttirish va ogoh etishni vojib deb bildim", deya asarni yozishdan ko'zlangan maqsadni ma'lum qiladi.

Asarda jamiyatdagi turli toifa va tabaqa vakillarining fe'l-atvoriga xos bo'lgan fazilat va illatlar qiyosiy tahlil etiladi. Kishining komillik sari yuksalishi o'zini anglash orqali tabiatidagi qusurlardan poklanish va ezgu sifatlarni o'zlashtirish hamda hayoti davomida ularga qat'iy amal qilishi asosida ro'y berishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, ijobiy va salbiy sifatlar o'zaro taqqoslash orqali o'quvchiga taqdim etiladi. Bunda muallif "Yomonni ko'rmasdan turib, yaxshining qadriga yetmas kishi" iborasiga amal qilgan holda, yomonlikni tartibsizlik keltirib chiqaruvchi va yaxshilikni esa tartib o'rnatuvchi omil sifatida talqin etadi.

Komillik to'g'risida so'z yuritilgan ayrim qadimiy kitoblarni o'qiganda, komillik maqomi zamin odamiga nasib etmaydigan bir narsaga o'xshab tuyuladi. To'g'ri, komil





shod etadi va ehson qilmay kishini g'amdan ozod etadi", deya insonlarga ezgu amallar bilan yovuzlikni barataraf etishning sodda yo'llarini ko'rsatib beradi.

Mutafakkir odob to'g'risida: "Adab kichik yoshlilarni ulug'lar duosiga sazovor qiladi va u duo barokatidan umrbod bahramand bo'ladi. Kichiklar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Kichiklarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadi. Va fe'l-atvoridan xalq ulug'vorlik ko'radi. Xalq tomonidan behurmatlik eshigi yopiladi va odamni hazil-mazaxdan va masxaralanishdan saqlaydi. Odob odam tabiatiga insoniylik va shu manzildan orom baxsh etadi. Odob va tavoze muhabbatga zeb-ziynatdir, aksi do'stlikka putur yetkazadi. Tavoze va odoblilarga xalq ta'zim va hurmat bilan qaraydi va odob urug'ini ekkan javohir hosilini oladi. Xalq bilan munosabatda yaxshi xulqli bo'lishning hosilasi shunday va aksi bo'lsa, o'rtadagi muhabbatga xalal yetadi. Ikki tomondan ham xulq chiroyli bo'lsa, adab va tavoze muqobilida izzat va hurmat hosil bo'ladi. Bunday ahil, ittifoq, muhabbatli, odobli bo'lish do'stlar uchun saodatdir. Aksincha, mutakabbir, xudbin va aqlsiz johil bo'lsa, bunday saodatdan mahrumdir", deya kishilarni yaxshi xulq tufayli erishiladigan saodat va yomon xulq tufayli yetadigan ofatlardan ogoh etadi.

Bugungi globallashuv davrida Navoiy tomonidan ilgari surilgan komil inson g'oyasi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda komillikka erishish uchun insonparvarlik, ezgulik, yaxshilik, xokisorlik, saxovat, olijanoblik, adolatpeshalik, mardlik kabi muhim sifatlarni o'zlashtirish orqali inson o'zini o'zi takomillashtirib, beqarorlik holatidan barqarorlikka, tartibsizlikdan tartibga o'tib borishi ilmiy asoslab beriladi. Navoiyning komil inson g'oyasi ham shu davrning mahsuli sifatida ijtimoiy toifalar, yakka shaxslardan iborat jamiyat a'zolarini ma'naviy yuksaltirishga qaratiladi. Ma'naviy qashshoqlikni kamaytirish yo'li bilan ezgu kuchlar miqyosini kengaytirish, bu orqali esa ijtimoiy zulmni "tiyib qo'yish" yo'llari ko'rsatiladi. Ezgulikni yoyish bir tomondan jaholatga qarshi kurashishga va ikkinchi tomondan yovuzlikning faoliyat doirasini cheklashga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Zero, kishi ma'naviy yuksala borgan sayin oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish, ya'ni tamiz tuyg'usini kasb eta boradi. Qora kuchlar esa, ko'pincha, o'z hayotini birovlarining johilligi, omiligi, laqmaligi, umuman olganda, jamiyat a'zolari orasida tarqalgan illatlar ustiga quradi. Bu murakkab jarayonni yaxshi idrok eta olgan Navoiy fazilatlarni qaror toptirish hamda illatlarga qarshi kurash vositalariga bir xilda ahamiyat beradi. Mutafakkir nazdida inson o'zini anglash asosida fe'l-atvoridagi illatlardan poklansa, yaxshi xulq va fazilatlarni o'zlashtirsa, hayotda yaxshilik va to'g'rilikni o'ziga shior qilib yashasa, uning zoti albatta komillik sifatlari bilan bezatiladi va u ikki dunyo saodatiga muvaffaq bo'ladi.

REFERENCES:

- [1]. Aripova, A. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. Tashkent,





inson martabasiga yuksalish mashaqqatli – riyoziyat va zahmatni talab etadigan ish. Tasavvufiy mazmundagi komillik shartlari yana-da og'irroq. Lekin Navoiy masalani murakkablashtirmaydi. Aksincha, har qanday murakkablik va qiyinchilikni oson hal qilish yo'llarini ko'rsatadi. Shulardan biri, ehtimolki, birinchisi, komillik da'vosini dildan supurib tashlab, noqislikka nigohni qaratish, ya'ni o'z nuqsonlarining mushohadasiga kirishishdir. Binobarin, insonning barkamol qiyofa kashf etishi undagi zohiriy yomon qiliqlarni, xatti-harakat va amallarning nechog'lik so'nib borish darajasiga bog'liq.

Navoiy o'zining komil inson to'g'risidagi qarashlarini yasovul (O'rta Osiyo xonliklari davrida yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon) guruhi to'g'risidagi mushohadalarida bayon qiladi: "Yasovul shunday odamki, u mazlumni zolimning zulmidan qutqargay. Ammo qilgan xizmati uchun ortiqcha haq talab qilsa, u zolimning zulmiga kattakon sherikdir. Agar qilgan xizmatiga yarasha haq olsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir. Agar olgan haqi xizmatidan kam bo'lsa, bu uning mard va muruvvatliligiga dalolatdir. Agar astoydil ishni bitirsa-yu, o'z haqini olmasa, bunday kishini haqiqiy avliyo, desa bo'ladi. Ko'p eranlar (komil insonlar) bunday ishni o'zlariga shior qilib olganlar va shu odat bilan asl maqsadlariga yetganlar".

Yasovul misolida mutafakkir insonparvarlik xislatlariga ega bo'lgan, muhtojlarga yordam berishga doim tayyor, hojatbaror, qilgan xizmatiga arziyas haq oladigan mard, muruvvatli komil inson siyratini yaratadi. Navoiy komillikning ezgulik, yaxshilik, xokisorlik kabi ko'plab murakkab sifatlarini sodda va oddiy ko'rinishlarda ochib beradi.

Mutafakkirning ta'kidlashicha, kishining ma'naviy poklanish tomon yuz tutishi, avvalo, uning tavbasida zohir bo'ladi. Navoiy nazdida "Haqiqiy tavba yomon fe'llar tufayli keladigan baloning oldini olmoqdir va tangri bergan tavfiq (inoyat) tufayli u fe'llardan qutulmoqdir. Tavba baxtsizlik yo'lining oxiri va hidoyat yo'lining boshlanishidir. Tavba takabburlik g'aflatidan uyg'onmoq va o'zining noloyiq ahvolini anglamoq va behuda fe'llarini tashlamoq va ko'zga ko'rinmas yaramasliklarni his qilmoq va nokerak da'volardan kechmoq va qabih amallar sharmandaligi va rasvogarchilik tufayli keladigan xijolatdan ogoh bo'lmoqdir. Tavba insonga xos sarkashlikdan voqif bo'lmoq. Insonni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi nafs fasodi (yomonligi)dan va ko'ngil itoatsizligidan nafratlanmoqdir".

Insonning ma'naviy kamolotida tavoze (kamtarlik) va odobning ahamiyati beqiyosligini yaxshi bilgan Hazrat Navoiy: "Tavoze kishini xalqning muhabbatiga sazovor qiladi. Va odamlar uni do'st tutadilar. Tavoze mutakabbir dushmanga muloyimlik tomon yo'l ko'rsatadi, gerdaygan dushman ko'nglida insoniylik zavqini qo'zg'atadi. Qayta-qayta ko'rsatilgan tavoze hayosiz manmanni uyat chegarasiga boshlaydi va insofsiz dushmanni yomonlikdan qaytaradi. Tavoze kishi o'z tengdoshlari ichida tahsinga loyiq, kattayu kichikni rom qiladi. Sahovat qilmay elni





University of World Economy and Diplomacy, 2007.

[2]. Арипова, А. (2007). Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. Тошкент, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети // Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари*.

[3]. Khasanovna, A. A. (2021). The Live Word Is An Important Tool That Constitutes The Content-Essence Of The Oratory Art. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 417-434.

[4]. Hazrat Alisher Navoi a great representative of the art of speech //2021

[5]. ШАРҚНИНГ БУЮК НОТИҚЛАРИ // 2021

